



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING
QARORI

“Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-sentabrdagi 690-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. “Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga (ro‘yxat raqami 3312, 2021-yil 16-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 10/21/3312/0684-son) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Ўзбекистон Республикаси
Давлат статистика
қўмитасининг раиси

Тошкент ш.
2021 йил 01 декабрь,
14-мб сон



Begalov B. A.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2021-yil 1-dekabrda
14-mb-son qaroriga
ILOVA

**“Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga kiritilayotgan
O'ZGARTIRISHLAR**

1. Qarorning muqaddimasidagi “Davlat statistikasi” degan so'zlar “Rasmiy statistika” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Nizomda:

muqaddimadagi “Davlat statistikasi” degan so'zlar “Rasmiy statistika” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

1-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**respondent** – rasmiy statistikani tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;”.